



HINDISTON – O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLAR

Xursanova Farangiz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10405560>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-December 2023 yil
Ma’qullandi: 15- December 2023 yil
Nashr qilindi: 19- December 2023 yil

KEY WORDS

HMK, "O'zbekturizm", Kompetent,
federatsiya, J.Neru, dominion.

ABSTRACT

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. 1991-yil O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Hindiston O'zbekiston mustaqilligini tan olib, 1992- yil diplomatiya munosabatlari o'rnatdi va ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli aloqalar yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston o'rtasida munosabatlarning huquqiy asosini turli sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlikni tartibga solib turuvchi davlat, hukumat va muassasalararo hujjatlar tashkil etadi

Ikkinchi jahon urushi (1939-45) davrida Hindiston antifashistik koalitsiya tomonida bo'ldi. Urush so'nggida Hindiston bilan Angliya imperializmi o'rtasida iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar keskin kuchaydi. 1946-yil boshida armiya, flot va aviatsiyada inglizlarga qarshi ommaviy chiqishlar bo'lib o'tdi. 1946-yil 18-23-fevralda Bombaydagi harbiy dengizchilar qo'zg'oloni inqilobiy harakatning yuqori cho'qqisi bo'ldi. Angliya hukumati milliy harakat rahbarlari bilan muzokara boshlab, 1946-yil bahorda Hindistonga dominion maqomini berishga qaror qilganligini e'lon qildi. 1946-yil avgustda J. Neru boshchiligida muvaqqat hukumat tuzildi. Milliy ozodlik harakati-ning avj olib ketishi natijasida ingliz mustamlakachilari Hindistondan chiqib ketishga majbur bo'ldi. 1947-yil 15-avgustda Hindiston hududida ikki mustaqil davlat – Hindiston (asosan, hindulardan iborat) va Pokiston (asosan, musulmonlardan iborat) dominionlari vujudga keldi. Hindistonning birinchi bosh vaziri HMK yetakchisi J. Neru bo'ldi [1].

Hindiston – 1945-yildan BMT a'zosi. 1991-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va 1992-yil 18-martda diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. 1950-yil 26-yanvarda Hindiston suveren respublika deb e'lon qilindi. Mamlakatda agrar islohotlar o'tkazila boshlandi. Sanoatda davlat sektorini yaratish va uni rivojlantirish, qishloq xo'jaligida zamindorlik yer egaligini tugatish yo'llari bel-gilandi. 1964-yil mayda J. Neru vafotidan so'ng HMK partiyasining ahvoli og'irlashdi. 1965-yil kuzda Hindiston – Pokiston mojarosi yuz berdi. 1966-yil Toshkent uchrashuvitsya imzolangan Toshkent deklaratsiyasi ikki mamlakat o'rtasidagi nizolarni hal qilinishiga asos bo'ldi. 1966-yil yanvarda L. B. Shastri vafotidan so'ng J.Neruning qizi – I. Gandi Hindiston Bosh vaziri bo'ldi. 1977-yil martda parlamentga o'tkazilgan saylovda Janata parti (partiyasi) g'olib chiqdi. Bu HMKning keyingi 30 yil (1947-77) mobaynidagi birinchi yirik mag'

lubiyati edi. Janata parti yetakchisi M. Desai Hindiston Respublikasining to'rtinchi Bosh vaziri bo'ldi. 1977-yil martdagi mag'lubiyatdan keyin HMK partiyasi inqiroz davrini boshidan kechirdi. Partiyaning bir qancha ko'zga ko'ringan rahbarlari Janata partiga o'tib ketdi. 1978-yil yanvarda sobiq Bosh vazir I. Gandi va uning bir qancha tarafdorlari HMK dan chiqib, yangi partiya – HMK(I)ni tuzdilar [2].

Bu davrda Hindistonning iqtisodiy ahvoli yomon lashdi: jahon iqtisodiyotida yuz bergan tushkunlik Hindistonni ham chetlab o'tmadi. Iqtisodiy o'sish deyarli to'xtadi, inflatsiya kuchaydi, ishsizlik oshdi. Mamlakatda turli etnik va diniy guruhlar o'rtasida ziddiyat, umumiy tanglik holati kuchayib bordi. Shunday holatda 1991-yili tamil terrorchisi tomonidan Hindiston bosh vaziri Rajiv Gandi o'ldirildi. Hokimiyatga kelgan Narasimxa Rao hukumati bozor islohotlarining yangi bosqichini boshladi. Davlat sektori qisqartirilib, yirik korxonalar xususiyashtirildi. Iqtisodga davlatning aralashuvi yanada kamaytirildi. Bir qator favqulodda tadbirlar ham amalga oshirildi. Xususan, rupiya devalvatsiya qilindi, soliq islohoti o'tkazildi, davlatning valuta zaxirasi to'ldirildi. 1990-yillarda Hindiston jiddiy yutuqlarga erishdi. Shu davrda YIM hajmi bir necha barobar oshdi. Ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari ta'minlandi. Bu davrda Hindiston o'zining oltin-valuta zaxirasini oshirishga intildi, neft qazib olishni ko'paytirdi. Qishloq xo'jaligi ham muvaffaqiyatli rivojlandi. 1992-yildan Hindiston g'alla eksport qilishni boshladi. Mamlakat ko'plab, jumladan, yuqori texnologiya mahsulotlarini ham eksport qiladi. Masalan, yuqori sifatli kompyuter dasturlarini sotishdan yiliga bir necha milliard dollar foyda olmoqda. Hindiston kompyuter dasturlarini yaratish sohasidagi yuqori malakali kadrlar soni bo'yicha dunyoda AQSHdan so'ng ikkinchi, ilmiy-texnik xodimlar soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Atal Bixari Vajpai Zamonaviy Hindiston. 1998-yil mart oyida bo'lib o'tgan parlament saylovlarida Xalq-demokratik alyansi g'alaba qozonib, uning yetakchisi Atal Bixari Vajpai bosh vazir lavozimini egalladi. Ko'plab tabiiy qiyinchiliklarga, jumladan, mamlakat g'arbidagi qurg'oqchilikka qaramasdan, A.B.Vajpai hukumati o'zining bir qator rejalarini amalga oshirdi. Kashmirdagi musulmon separatizmini kuchsizlantirish tadbirlari o'tkazildi. 2000-yili mamlakat shimoli-g'arbida uchta yangi shtat tashkil qilindi. Hukumat mamlakatning bu mintaqasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi, shu maqsadda birinchi marta maxsus vazirlik tuzildi. A.B.Vajpai hukumati ovoz berishning yanada erkinligini, saylovoldi kampaniyasida moliyaviy xarajatlarning oshkoraligini ta'minlash maqsadida bir qator saylov islohotlarini amalga oshirdi [3].

Iqtisodiy sohada A.B.Vajpai kabineti xo'jalik faoliyatiga hukumatning bevosita aralashuvini qisqartirish choralarini ko'rdi. U ko'plab sohalarda davlat monopoliyasini bekor qildi, tadbirkorlar va firmalar faoliyati ustidan nazoratni kamaytirdi, soliqlarni pasaytirdi. Hukumat bar qaror iqtisodiy o'sishni, Hindiston sanoatining raqobat bardoshligini, kompyuter texnologiyalari, transport va aloqa sohalari rivojlanishini ta'minladi. Ammo iqtisodiyotning yanada liberallashuvi ayniqsa yoshlar orasida ishsizlikning o'sishiga, qashshoqlik muammosining keskinlashuviga olib keldi. Natijada 2004-yil may oyida bo'lib o'tgan saylovlarda Hindiston milliy kongressi (HMK) so'llar bilan hamkorlikda g'olib chiqdi. Hukumatni Manmoxan Singx boshqardi. Yangi hukumat mayda ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga, ishsizlikni kamaytirishga, aholining kamdaromad qismini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilashga, qashshoqlar sonini kamaytirishga, inson manfaatlari yo'lida iqtisodiy islohotlar o'tkazishga va'da berdi. Hindiston – XXI asrda dunyoning iqtisodiy yetakchilaridan biriga aylanishga da'vo qilayotgan mamlakat. 2006-yili e'lon qilingan Jahon

bankining prognozlariga qaraganda, 2025-yilga kelib, Hindiston iqtisodiyoti dunyoda Xitoy va AQSHdan so'ng uchinchi o'ringa chiqishi mumkin. Hindiston hozirdanoq barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan sektorni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish yo'lidan bormoqda. 2014-yili Hindiston bosh vaziri bo'lgan Narendra Modi ham islohotlar siyosatini davom ettirmoqda. Narendra Modi Hindistonning ichki va tashqi siyosati shakllanishiga, XXI asrda uning iqtisodiy yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan hal qiluvchi omil mamlakatning demokratik yo'lidan rivojlanishi bo'ldi. Unda hokimiyatning rahbar organlarida jamiyatning turli qatlamlari vakillari ishtiroki uchun imkoniyat yaratildi. Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ancha yuqori sur'atlari aholi katta qismining yashash sharoitini yaxshilash imkonini berdi, bu hind jamiyati va davlati erishgan eng katta yutuq hisoblanadi [4].

Hindiston mustaqillikka erishgan paytda mamlakat aholisining 96% savodsiz bo'lgan. 1949-yilda qabul qilingan konstitutsiya bo'yicha 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul majburiy talim joriy etildi. 2005-yilda savodxonlik darajasi 52% ga yetdi. Mamlakatda katta yoshdagi aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish maqsadida maxsus maktablar ochilgan bo'lib, ularda 120 mln. kishi shug'ullanadi. Hindistonda xalq ta'dimi tizimi maktabgacha ta'lim muassasalari, boshlang'ich va kichik asosiy maktab, to'liqsiz o'rta va to'liq o'rta maktabdan iborat. Malakali ishchilar hunar bilim yurtlarida tayyorlanadi. Oliy o'quv yurtlarida o'qish muddati 5-6 yil va o'qish pulli. Davlat o'quv yurtlari bilan birga xususiy o'quv yurtlari ham mavjud. Mamlakatda 219 universitet va institut hamda 7 mingdan ziyod kollej bor. Yirik va qadimgi oliy o'quv yurtlari: Bombay universiteti, Kalkutta universiteti, Chennai universiteti va boshqa asosiy kutubxonalar: Kalkuttadagi milliy kutubxona (1902-yil tashkil etilgan), Dehlidagi ommaviy kutubxona (1951), Chennaiyidagi ommaviy markaziy kutubxona (1896) va boshqa Mamlakatda 460 dan ortiq muzey faoliyat yuritadi. Yiriklari: Chennaiyidagi davlat muzeyi (1851-yil tashkil etilgan), Dehlidagi hozirgi zamon san'ati milliy galereyasi (1954), Yangi Dehli (Nyu-Deli)dagi Milliy muzey, Varanasi shahridagi San'at muzeyi, Kalkuttadagi Hindiston muzeyi (1814), Birla Texnologiya muzeyi, Bombaydagi G'arbiy Hindiston muzeyi, Dehlidagi J. Neru (1964), M. Gandi (1948) memorial muzeylari [5].

2005-yilgacha ikki davlat o'rtasida 60 ga yaqin rasmiy hujjat imzolandi. 1992-yil Toshkentda Hindistonning Bosh konsulxonasi (1988 yil tashkil etilgan), 1994-yil [Dehlida](#) O'zbekiston Respublikasi konsulxonasi (1992 yil tashkil etilgan) elchixonaga aylantirildi. Shu davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti [Islom Karimov](#) 4 marta (1991, 1994, 2000, 2005) rasmiy tashrif bilan Hindistonda bo'ldi. 1993 yil rasmiy tashrif bilan Hindiston Bosh vaziri Narasimxo Rao O'zbekiston Respublikasiga kelgan. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy murosabatlar ikki tomonlama shartnomaviy-huquqiy asoslarpi tashkil qilgan bir qator iqtisodiy bitim va hujjatlar, jumladan, "Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim", "Investitsiyani o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risidagi bitim", "Ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi bitim" bilan muvofiqlashtiriladi. 1993- yilda ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya doimiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1993— 2005 yillarda bu komissiyaning 5 ta yig'ilishi bo'lib o'tdi. 2003- yil 24—26 martda Toshkentda Hindiston savdo ko'rgazmasi bo'lib o'tdi; unda Hindistonning yirik korxonalar va kompaniyalari ishtirok etdi [6].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil apreldagi

Hindistonga tashrifi chog'ida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, Ta'lim va madaniyat sohasida hamkorlik bo'yicha hukumatlararo hujjatlar imzolandi. mudofaa vazirliklari o'rtasida harbiy va harbiytexnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi bilan Hindiston davlat savdo korporatsiyasi o'rtasida anglashuv memorandum, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi bilan Hindiston sayyohlikni rivojlantirish korporatsiyasi o'rtasida anglashuv protokoli, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan Hindiston savdosanoat palatalari federatsiyasi hamda Hindiston eksport tashkilotlari federatsiyasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitimlar, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan Hindiston davlat banki hamda Hindiston eksport-import banki o'rtasida hamkorlik memorandumlari, "O'zsanoatma-shimpeks" davlat aksionerlik tashqi savdo kompaniyasi bilan Hindistonning "Kompetent" kompaniyalari guruhi o'rtasida Savdo uyi tashkil etish to'g'risida memorandum, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan J.Neru universiteti hamda Toshkent sharqshunoslik instituti bilan Mirzo G'olib instituti o'rtasida anglashuv memoran-dumlari imzolandi. 2004 -yil mamlakatlar o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 160 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Hindistondan O'zbekistonga qog'oz va karton, dori-darmon, uskupa, organik va kimyoviy birikmalar keltiriladi. O'zbekiston Hindistonga rangli metallar va ularlan yasalgan buyumlar, ayrim xizmat turlari, poliz mahsulotlari, ipak va kimyoviy tolalarni yuboradi. Ayni vaqtda O'zbekistonla Hindiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 40 ga yaqin qushma korxonalar hamda Hindistondagi 4 kompaniyaning vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda [7].

Ikki mamlakat o'rtasida axborot texnologiyalari, kon -sanoati, madaniyat, fan, texnika va ta'lim sohasida hamkorlik rivojlanmokda. Ikki mamlakat olimlari ishtirokida ilmiy simpozium, seminar va anjumanlar o'tkazish odatusiga kirgan. Mamlakatlar tarixi, musiqa, adabiyot, arxeologiya, me'morlik, tibbiyot, biol., kosmik fazoni o'rganish, geol. va boshqalar ko'plab sohalarda hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 1991- yil Hindistonda buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning 550 yilligiga bag'ishlangan O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari o'tkazildi. 1992 yil oktabrda O'zbekiston mustaqilligining bir yilligiga bag'ishlab Dehli shahrida o'zbek madaniyati va san'ati festivali bo'lib o'tdi. Shu yil noyabr oyida o'zbekistonlik taniqli rassom Akmal Nuriddinovning ko'rgazmasi namoyish etildi. 1993- yil [Zahiriddin Muhammad Bobur](#) tavalludining 510 yilligi Hindiston va O'zbekistonda keng nishonlandi. Ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlikning rivojlanishida 1994-yil Hindistonning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi huzurida faoliyatini boshlagan Hindiston madaniy markazining hissasi katta [8].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
2. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOYIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
3. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

4. "Jahonning eng yangi tarixi" Toshkent-2018;
5. " Hindiston Mustaqillik davri" asari, Dehli-2022;
6. " Hindiston tashqi siyosati" asari Dehli-2015;
7. " Hindiston 2-jahon urushidan keying davrda" , Jahon tarixi , Toshkent-2017;
8. " Hindiston – O'zbekiston siyosati" jurnal , Toshkent-2003;



INNOVATIVE
ACADEMY